

**UMUMTA'LIM MAKTEBLARIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR SIFAT
VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM JIHATLARI**

Yshimbetova Sholpan Xodjabayevna

Qoraqalpog'iston Respublikasi

Ellikqa'la tumani MMTBga qarashli

31-maktab ma'naviy-ma'rifiy

ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari

Annotatsiya: Yurtimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarga juda katta strategik masala sifatida qaralib kelinmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning deyarli barchasi shu yurtda istiqomat qilayotgan insonlarning orzu-istaklarining ro'yobi uchun qilinayotgan ishlardir, deb qarasa, bizningcha to'g'ri bo'ladi. Barkamol avlod, komil inson, yosh avlod tarbiyasi kabi vazifalar aynan ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni tashkil etish orqali amalga oshiriladigan jarayonlardir. Bu jarayonlarning barchasining markazida insonlarning farovon hayot kechirishlari, xalqimizni ehtiyojlarini qondirish, ularning yaxshi yashashi, sharoitlarini yaxshilash kabi vazifalar yotadi.

Kalit so'zlar: ma'naviy-ma'rifiy ishlar, ta'lim jarayoni, ko'nikmalarni takomillashtirish, maqsad, ehtiyojlar, samaradorlik, salohiyat, mafkuraviy immunitet

KIRISH

Umumta'lim maktablarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligi nafaqat o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini oshirishga, balki ularning shaxsiy rivojlanishi va jamiyatga ijobiy munosabatini shakllantirishga ham bevosita bog'liqdir. Bu jarayonning sifat va samaradorligini oshirish bir qancha muhim jihatlarga e'tibor qaratishni talab qiladi.

Birinchidan, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning tizimli tashkil etilishi muhimdir. Tadbirlar rejalashtirilganda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va psixologik holati hisobga olinishi lozim. Shuningdek, ota-onalar, jamoat tashkilotlari va mahalliy hokimiyat bilan hamkorlikni kuchaytirish tadbirlarning samaradorligini oshiradi.

Ikkinchidan, o'qituvchilar va pedagog xodimlarning malakasi muhim ahamiyatga ega. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar metodikasini chuqur o'rganish, innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol uslublardan foydalanish, shuningdek, psixologik bilimlarni rivojlantirish o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Uchinchidan, o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga yo'naltirilgan ishlar samaradorlikni oshiradi. Etik va axloqiy tarbiya, vatanparvarlik, insoniy qadriyatlarni

singdirish, o'quvchilarning ijtimoiy faolligini rag'batlantirish, ko'ngilli ishlar, hayriya tadbirlari va ekologik aksiyalar o'quvchilarda mas'uliyat va hamjihatlik tuyg'ularini rivojlantiradi. Shuningdek, har bir o'quvchining iqtidorini aniqlash va rag'batlantirish uning shaxsiy o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

To'rtinchidan, axborot-resurs bazasini kengaytirish muhimdir. Kitoblar, maqolalar, multimedia materiallar va interaktiv platformalardan foydalanish, elektron resurslar orqali o'quvchilarni ma'naviy-ma'rifiy ishlarga jalb qilish jarayonning sifatini oshiradi.

Beshinchidan, o'quvchi va jamoa faoliyatini baholash tizimi tadbirlarning samaradorligini ta'minlaydi. Tadbirlar natijadorligini aniqlash uchun baholash mezonlari va indikatorlari joriy etilishi, o'quvchilarning fikr-mulohazalari va takliflarini inobatga olish, yaxshi natijalarni rag'batlantirish motivatsiyani oshiradi.

Shuningdek, ijtimoiy va madaniy muhitni rivojlantirish ham muhimdir. Maktabning ichki muhitini o'quvchilarning ruhiy va ma'naviy rivojlanishiga moslashtirish, an'anaviy bayramlar, tarixiy va madaniy tadbirlar orqali milliy o'zlikni shakllantirish, zo'ravonlikka qarshi kurashish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish o'quvchilarda ijobiy odatlarni mustahkamlaydi.

Nihoyat, innovatsion yondashuv va monitoring orqali ma'naviy-ma'rifiy ishlarni takomillashtirish mumkin. Elektron platformalarda, onlayn loyihalarda tadbirlarni rivojlantirish, natijadorlikni muntazam monitoring qilish va yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish jarayonning sifatini va samaradorligini oshiradi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonining muhim muammosi ta'lim-tarbiyaning insonparvar paradigmalarini ishlab chiqish hisoblanadi. "Ta'lim sohasining yana bir eng asosiy vazifasi bugungi kun uchun zarur bo'lgan yangi avlodni, fan va o'z ixtisosligi asoslarini puxta egallagan, bilimli yoshlarni tarbiyalashdan iboratligi shubhasiz".

Bu paradigmalar zamonaviy ijtimoiymadaniy vaziyatga mos kelishi lozim. Shundagina u ko'p madaniyatlilikka asoslangan ta'lim jarayoni oldiga qo'yilgan vazifalarni hal eta oladi. Uning yechimlarini topish ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish shunchaki tarbiya jarayoni emas, tarbiya va ta'limni takomillashtiruvchi nazariy va amaliy chora-tadbirlar mexanizmi sifatida tushunish joiz. Chunki, bu jarayonda nazariya va amaliyot o'zaro mujassamlashadi. Ta'lim muassasalarida nazariy jihatdan olingan bilimlar chora-tadbirlarni uyushtirish orqali o'quvchilarning ko'nikmasi takomillashib boradi.

Targ'ibot odamlarda yangi bilim, tuyg'u, orzu-istaklarni hosil qilish, to'g'ri asoslangan fikr, e'tiqodni mustahkamlash, noto'g'ri shakllangan stereotip, qarash, yangilish xulosalarni o'zgartirishni ham ko'zda tutadi. Shunday ekan, masalaga ilmiy-amaliy yondashuv inson psixologiyasining tuzilishini bilishni, targ'ibotning usul, shakl, texnologiya va vositalarini ijtimoiy psixologiya va pedagogika, sotsiologiyaning

zamonaviy yutuqlariga tayangan holda tanlash va amalga oshirishni taqozo etadi. “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi PQ-5040-son qarori ijrosini ta’minlashga bag’ ishlangan yig’ilishida qayd etilganidek, “yoshlarimiz ongiga salbiy ta’sir etuvchi, ularni g’oyaviy jihatdan qaram etishga yo’ naltirilgan harakatlarga qarshi samarali kurash olib borish hamda irodali, fidoyi, vatanparvar va o’z mustaqil fikriga ega avlodni tarbiyalash bo’yicha amaliy chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqish”[2] vazifasi ustuvorlashmoqda. Bu esa, avvalo, targ’ ibotning ilmiy-amaliy printsiplarini aniqlab olishni taqozo etadi. Quyida sharhlanayotgan targ’ibot printsiplari milliy g’oya targ’iboti hamda ma’naviy-ma’rifiy ishlar tajribasidan kelib chiqqan holda takomillashtirib boriladi. Bu o’z-o’zidan jamoatchilik fikrini o’rganishni to’g’ri yo’lga qo’yishni taqozo etadi. Jamoatchilik fikrini o’rganish muayyan jamiyatdagi odamlarning xohish istagi, kayfiyati, muammolar va ularning yechimlari bo’yicha ma’lumot olish va jamoatchilik fikrini boshqarish imkoniyatini beradi. Jamoatchilik fikri bu muayyan bir jamiyatdagi yoki davlatdagi mavjud holat bo’yicha insonlarning fikrlari va xulosalari yig’indisi hisoblanadi.

Shu sababli ma’naviyat targ’ibotchisi doimo jamoatchilik fikrini o’rganib borishi, targ’ibot tashviqot ishlarida to’plangan ma’lumotlar asosida muayyan xulosalar chiqarishi, har doim o’z ma’ruzalarini jamoatchilik fikri asosida tayyorlashi va unga ijobiy ta’sir ko’rsatish va uni boshqarishi maqsadga muvofiq bo’ladi. Aynan jamoatchilik fikrini o’rganish orqali mavjud muammolar bo’yicha aniqroq, ishonchliroq va batafsil ma’lumotlarga ega bo’lish mumkin. Muammoga turlicha rakurslardan nazar tashlash imkoniyati yuzaga keladi. Muammo haqidagi ma’lumotlaringizni reprezentativligi oshadi. Natijada muammolarni bartaraf etish bo’yicha ham eng to’g’ri tashxisni qo’yish mumkin bo’ladi. Jamoatchilik fikri o’zgaruvchan bo’lib, uni boshqarish uchun muntazam o’rganib borish va unga asoslangan holda muammolar yechimini topishga harakat qilish xalq va mahalliy vakillik organlari o’rtasidagi o’zaro ishonchni mustahkamlaydi. Muammolarni hal etish osonlashadi, mahalliy rahbarlarning xalq oldidagi obro-e’tibori ortadi.

Darhaqiqat, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni amalga oshirishda asosiy maqsad yoshlarni bo’sh vaqtlarini mazmunli o’tkazish, ularning ma’naviy, estetik ehtiyojlarini qondirish, ma’naviy dunyosini boyitish, vatanparvarlik, fidoyilik, mehnatsevarlik hissiyotlarini rivojlantirish, jamiyat taraqqiyotida o’z o’rnini egallashi, kelajakda jamiyatning faol a’zosi sifatida shakllanishi, ilmiy, bilimli, zukko bo’lishi kabi ulug’ maqsadlar qo’yilgan.

Hozirgi kunda bunday ishlar ta’lim muassasalari bilan bir qatorda mahallalarda ham tashkil etilishi katta samara bermoqda. Mahallalarda istqomat qilayotgan xalqimizni ma’naviy-ahloqiy tarbiyalash, ularning ma’rifiy va ijodiy qobiliyatlarini

oshirish, dam olish va xordiq chiqarishni uyushtirish ham ma'naviy-ma'rifiy sohalarning ijtimoiy funksiyalarini belgilab bermoqda. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev tomonidan insonlarning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, xalqni rozi qilish, yashash sharoitlari, turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan qator ishlar amalga oshirilmoqda. Insonlarning maroqli dam olishlari uchun dam olish maskanlarini, madaniyat markazlari, madaniyat va istirohat bog'lari, teatrlar, konsert zallari, sport o'yinlari o'tkaziladigan maydonlar, maktab, oliy ta'lim muassasalari, ishlab chiqarish korxonalarini yangidan qurish, moddiy-texnika bazasini takomillashtirish, rivojlantirish, ularni ta'mirlash va boshqa ishlar shaxsan davlatimiz rahbarining tashabbuslari, taklif va ko'rsatmalari asosida tashkil etilmoqda. Ayniqsa, talaba yoshlarning yaxshi o'qishlari, ularning ma'naviy, estetik ehtiyojlarini qondirish, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga qaratilgan turli mavzulardagi tadbirlarning tashkil etilishi talaba yoshlarning bu boradagi imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar sifatiga erishish uchun tadbirlar saviyasini ko'tarish haqida bosh qotirish lozim. Masalan, davra suhbatini olaylik. Odam savdosiga qarshi kurash mavzusi bo'yicha tadbir o'tkaziladigan bo'lsa, ma'ruzachi undagi faktlarni faqat aytib berish bilan chegaralansa, ya'ni (ma'ruzani o'qib yoki tushuntirib bersa) bu tinglovchida hech qanday hissiyotlarni uyg'otmasligi mumkin. Bunda turli metod va vositalardan to'g'ri va oqilona foydalanish - tadbirning sifat samaradorligiga erishishiga olib keladi. Bu yerda "tadbirni quruq ma'ruzani o'qish bilan emas, balki isbotlangan faktlar bilan, turli ko'rgazmalar, xujjatli filmlar, videoroliklar, sahna ko'rinishlari, shu mavzularga oid kuy va qo'shiqlar uyg'unligida o'tkazilsa, uning ta'sirchanligi va sifat darajasi oshadi hamda tinglovchi yoki tomoshabinning ongiga ijobiy ta'sir qiladi. Bunda ishonitirish metodidan foydalanish mumkin, ya'ni chet ellarga, ya'ni o'zga yurtlarga borib, ko'p pul topishni istagan yoshlarga buning hammasi safsata ekanligiga ishonitirish, u yerdagi shart-sharoit va ahvolning naqadar ayanchli ekanligini ko'rsatish (film, sahna ko'rinish orqali yoki aynan ana shunday sharoitlarga tushib qolgan insonlar o'zlari gapirib bersalar), o'z yurtining qadriga yetish kabi vazifalarni qo'ygan holda taqdim etilishi ko'pchilikning to'g'ri xulosa chiqarishiga sabab bo'la oladi, deyish mumkin.

Bitta tadbirni o'tkazgan bilan inson o'zgarib yoki tarbiyalanib qolmaydi. Buning uchun tizimli ishlarni amalga oshirish zarur. Tadbir tashkilotchilari badiiy jihatdan mukammal senariyni yaratish, uni sahnaga ko'chirish qonuniyatlarini yaxshi bilishi talab etiladi. Faqat kuy, qo'shiq yoki raqslardan iborat tashkil etilgan tadbirlar yaxshi samara bermasligi mumkin. Tadbirni g'oyaviy jihatdan aniq maqsadlarga yo'naltirish, tinglovchi yoki tomoshabinlarning didiga mos tarbiyaviy manbalardan foydalanish, bir so'z bilan aytganda, ma'naviy, estetik ehtiyojlarini qondirishga qaratilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Madaniy-ma'rifiy faoliyat ertangi kun ish samaradorligiga erishishda muhim rol o'ynaydi. Chunki, yaxshi dam olgan kishi sidqidildan mehnat qiladi. Xotirjam bo'lmagan, yaxshi dam olmagan, charchagan insondan chin dildan mehnat talab qilish qiyin masalalardan biridir. Yaxshi, maroqli dam olgan odam ish faoliyatida aktivlashadi, oldinga intiladi, oldinga intilish esa juda ko'p kadrlarni o'z o'rnini egallashda asqotadi. Insonlarning dam olish, hordiq chiqarish masalalari ham muhim ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy jarayonlardan biri hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, umumta'lim maktablarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligini oshirish faqat tadbirlar sonini ko'paytirish bilan emas, balki ularni tizimli, interaktiv, o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga yo'naltirilgan va ijtimoiy muhit bilan uyg'un holda tashkil etish bilan amalga oshiriladi. Pedagoglarning malakasi, resurslar, o'quvchilarning faolligi va baholash tizimi bu jarayonda hal qiluvchi rol o'ynaydi, aniq maqsadlarni oldiga qo'ygan holda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni maqsadli tashkil etish, u orqali insonlar ongida Vatanga muhabbat ruhini singdirish, ular orasida ijtimoiy-ma'naviy muhitni yaxshilash, ularni ertangi kunga ishonch bilan bunyodkorlik ishlariga jalb etish, ma'naviyatini yuksaltirish, ilmiy, bilimli, amiyatga nafi tegadigan inson bo'lib yetishishlarida bu faoliyatning ahamiyati beqiyosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Prezident Sh.Mirziyoyevning Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish choratadbirlari to'g'risidagi Qarori. // Xalq so'zi. 2018-yil, 15-avgust
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining o'z lavozimiga kirishishiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqi. "Yangi O'zbekiston" ijtimoiy-siyosiy gazetasi. 2021-yil 7-noyabr.
3. V.Alimasov, Y.Manzarov. O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy soha:nazariya va amaliyot. Toshkent, 2014.108b.
4. Ziyo.net